

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD 03/04.01.2025.P.190.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI

SHUKUROVA GULNOZ MUHAMMADOVNA

**KICHIK MAKTAB YOSHI O‘QUVCHILARIDA KO‘RGAZMALI-
OBRAZLI TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-
PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on the
Psychological Sciences**

Shukurova Gulnoz Muhammadovna

Kichik maktab yoshi o'quvchilarida ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik determinantlari3

Шукурова Гулноз Мухаммадова

Педагогико-психологические детерминанты развития наглядно-образного мышления у учащихся младшего школьного возраста27

Shukurova Gulnoz Muhammadovna

Pedagogical-psychological features of the development of visual-figurative thinking in students of a small school age51

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works55

**BUXORO XALQARO UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD 03/04.01.2025.P.190.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI

SHUKUROVA GULNOZ MUHAMMADOVNA

**KICHIK MAKTAB YOSHI O‘QUVCHILARIDA KO‘RGAZMALI-
OBRAZLI TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-
PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/P1120 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.bxu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ostanov Shuxrat Sharifovich
Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Usmanova Manzura Naimovna
Psixologiya fanlari nomzodi, professor

Atabayeva Nargis Batirovna
Psixologiya fanlari doktori (Dsc), professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro xalqaro universiteti huzuridagi PhD03/04.01.2025.P.190.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «18 oktabr» soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon ko'chasi, 250-uy. Tel.: (+9955) 309-99-99; email: bxu.@bxu.uz.


Dissertatsiya bilan Buxoro xalqaro universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (5 raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 200126, Buxoro viloyati, Buxoro shahar, Sitorai Moxi-xossa MFY, Abduxoliq G'ijduvoniy ko'chasi, 250-uy. Tel.: (55) 309-99-99).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «4» oktabr kuni tarqatildi.

(2025 yil «18» oktabr da 5 raqamli reyestr bayonnomasi).


Sh.R.Baratov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
psixologiya fanlari doktori, professor


M.X.Fayziyeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc),
professor


D.A.Sobirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya
fanlari doktori (DSc), professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yuqori darajadagi tafakkurga ega, salohiyatli, bilimdon avlodni tarbiyalash jamiyat taraqqiyotini ta'minlash va uning boshqa mamlakatlar orasidagi eng yuqori reytingini ta'minlash, jamiyatning rivojiga ta'sir etadigan eng asosiy omillar sifatida tadqiq qilinmoqda. Bugungi davrda «...yuqori tafakkurli, iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni tizimli dastur yordamida qo'llab-quvvatlash»¹ga alohida e'tibor berish orqali ma'naviy-axloqiy va psixologik jihatdan barqaror shaxsni tarbiyalash masalalari dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda. Ta'lim sohasidagi Xalqaro tashkilot «Education international»² ma'lumotlarga qaraganda dunyoda tafakkuri yuqori bolalarning umumiy soni 1-2% dan 20% gachani tashkil qilmoqda. Bu borada bolalarning faoliyat indikator ko'rsatkichi sifatida salohiyatini yuksak tafakkur mezonlari orqali belgilanishi, uning kreativligi, iqtidori, intellektual qobiliyati, talanti jamiyatning strategik zaxirasi sifatida e'tirof etilishi bilan bog'liq muammolarni o'rganish zaruratini yuzaga kelmoqda.

Jahon ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishning samarali usullari ta'lim jarayoniga tadbiiq etilmoqda. OECD (2020) ma'lumotlariga ko'ra, ta'lim jarayonida texnologiyalarning qo'llanilishi, jumladan, vizual va obrazli vositalardan foydalanish bolalarning qabul qilish va tushunish ko'rsatkichlarini 40% ga oshiradi³. Bu ko'rgazmali-obrazli tafakkur rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu borada kichik maktab yoshi davridagi o'quvchilarning bilish jarayonlarini, xususan, ulardagi ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirish orqali ular bilimlarini o'zlashtirish jarayoniga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik to'siqlarni bartaraf etish muammosini maxsus ilmiy tadqiq etish hamda zarur ilmiy xulosalar ishlab chiqish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni har tomonlama barkamol rivojlanishi, ta'lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil amaliy islohotlar, keng ko'lamlil ilmiy tadqiqotlar natijasida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quv jarayonida o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish g'oyasini keng tadbiiq etish imkoniyatlari oshirilmoqda. «Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi» g'oyasini amalga oshirishda «yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish» masalasi ustuvor vazifalar etib belgilanganligi, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish zarurati ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son «O'zbekiston Respublikasida Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»,

¹ National Association for Gifted Children «Pre-K to Grade 12 Gifted Education Programming Standards». 2019. <http://www.nagc.org/resources-publications/resources/national-standards-gifted-and-talented-education>.

² <https://www.ei-ie.org/en>

³ [https://one.oecd.org/document/EDU/WKP\(2020\)14/en/pdf](https://one.oecd.org/document/EDU/WKP(2020)14/en/pdf)

2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlari, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son «Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida», 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son «Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi «Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb- hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 187-son qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda kichik maktab yoshidagi bolalarni individual tipologik xususiyatlari, bilish jarayonlari hamda tafakkurni rivojlantirish masalalari N.Abdullayeva, Sh.Alimboyeva, M.Bekmurodov, Sh.Barotov, M.Davletshin, D.Jo‘raqulova, N.Jumayev, V.Karimova, Z.Kamaliddinova, D.Muhammedova, Z.Nishanova, Q.Nazarov, N.Sog‘inov, N.Safayev, G.To‘lagonova, B.Umarov, E.g‘oziyev va g'.Shoumarov va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan G.Y.Alekseyeva, O.V.Alekseyeva, I.K.Amonov, I.N.Agafonova, A.B.Dobrovich, I.V.Dubrovina, I.A.Lipina, V.Levi, N.Kozlov, S.L.Rubinshteyn, V.Y.Semke, M.Tyshkova, A.I.Zaxarov va boshqalar tafakkurning umumiy nazariyasi yuzasidan, tafakkurni rivojlantirishni pedagogik-psixologik asoslash bo‘yicha ilmiy-tadqiqot olib borganlar.

Xorij olimlaridan R.Bern, K.Buettner, Dj.Dyui, K.E.Izard, Z.Freyd, D.Jampolskiy, M.Jeyms, M.Rutter, R.J.Sternberg, K.Sternberg, D.Yongvard, E.Le Shan, K.Xorni va boshqalar kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar tafakkurini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-202005236 «Oila psixologiyasi fanidan multimedia mahsulotini yaratish» nomli innovatsion loyihasi doirasida bajarilgan (2021-2022 yy.).

Tadqiqotning maqsadi kichik maktab yoshi o‘quvchilarida ko‘rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlanishidagi differentsiativ xususiyatlarni aniqlash;

kichik maktab yoshi o'quvchilarida ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirishga ta'sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash;

kichik maktab yoshi o'quvchilarida ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirishda intellek darajasi xususiyatlarini tahlil qilish;

kichik maktab yoshi o'quvchilarida ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirishning psixologik shart-sharoitlariga doir nazariy-amaliy xulosalar ishlab chiqish va uning amaliy imkoniyatlarini aniqlashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida kichik maktab yoshi o'quvchilarida ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari tanlangan bo'lib, Buxoro viloyatidan 80 nafar, Navoiy viloyatidan 50 nafar hamda Qashqadaryo viloyatidan 40 nafar, jami, 170 nafar o'quvchilar respondentlar sifatida jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini kichik maktab yoshi o'quvchilarida ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada suhbat, kuzatish metodlaridan, shuningdek, Vekslarning «Bolalar intellektini aniqlash» metodikasi, Ravenning «Rangli progressiv matritsalar» testi, Vilyamsning «Ijodkorligi testi», tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan «Kichik maktab yoshi o'quvchilarining tafakkurini o'rganish» ijtimoiy-psixologik so'rovnomasidan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan Styudentning t-mezoni, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti, faktorli tahlil orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlanishi ta'limiy axborotlarni qabul qilish, ularni qayta ishlash, arifmetik amallarni bajarishda ko'rgazmalilikning ustuvorligiga asoslanib obrazlarning egiluvchanligi, chuqurligini obyektini modellashtirishga qaratilgan harakatlarning intereorizatsiyasiga bog'liq ekanligi dalillangan;

o'quvchilarda ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlanishi shaxsdagi fikrlarning ravonligi, kognitiv xususiyatlarni, matematik qobiliyatlar esa moslashuvchanlik, narsa va predmetlarni farqlash jarayonini kuchli ifodalanishiga ta'sir etganligi tufayli verbal tafakkurning senzitivlik asosida transformatsiyalashuviga bog'liq namoyon bo'ladigan ijodiy fikrlashga indentiv kechishi isbotlangan;

o'quvchilarda ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirishda mantiqiy fikrlash umumiy bilimdonlik va ziyraklik, so'z boyligini, kognitiv xususiyatlar analogiyalarni topishni, matematik qobiliyatni kuchayishiga olib kelganligi tufayli bolaning intellek darajasi predmetning obrazini sintezlash xususiyatiga bog'liq yetakchi psixologik omil ekanligi isbotlangan;

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirishning psixologik modeli bolalarning ko'rgazmali-obrazli xotirasini yoshga oid rivojlanishini intellektual xislar bilan uyg'unlashishiga erishish muhimligi tufayli «kognitiv», «emotsional», «motivatsion», «ijtimoiy»

komponentlarni fazoni obrazli modellashtirish qobiliyati orqali o'zaro integratsiyasi asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda o'z aksini topgan:

kichik maktab yoshi o'quvchilarida ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirish asosida ta'limning hozirgi holati tahlil etilib, o'qitishning metodik tizimi takomillashtirilgan;

kichik maktab yoshi o'quvchilarida ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar hamda topshiriqlar to'plami yaratilgan;

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tafakkur, fikrlashning tezligi, mazmunni idrok etish jarayonlari interfaol metodlarning amaliy xususiyatlariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

kichik maktab yoshi o'quvchilarida ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirishga individual va guruhiy tarzda aqlni o'stiruvchi topshiriq va mashqlardan iborat trening kursi tavsiya qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot o'tkazish jarayonida keltirilgan pedagogik-psixologik ma'lumotlar xalqaro miqyosida o'zining ishonchli ekanligini tasdiqlagan diagnostik vositalar orqali to'planganligi; o'zaro bir-birini to'ldiruvchi va samaradorlikni oshiruvchi metodlar qo'llanilganligi; empirik ma'lumotlar matematik-statistik tahlil qilinganligi; berilgan taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi, shu bilan birgalikda, olingan yakuniy natijalar vakolatga ega bo'lgan tuzilmalar tomonidan rasmiy tasdiqlanganligi ma'lumotnomalar bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati kichik maktab yoshi o'quvchilarida ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirishdasturining ishlab chiqilganligi, o'quv faoliyat samaradorligini oshirish jarayonida qo'llash mumkin bo'lishining nazariy asosi yaratilganligi, o'rganilayotgan muammoni ilmiy jihatdan ochib berish xulosalardan bakalavr hamda magistratura ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlashga doir oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqishda, ularning psixologik tayyorgarligini oshirish bo'yicha dasturlar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kichik maktab yoshi o'quvchilarida ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirishning uslubiy vositalarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar psixolog kadrlar amaliy tayyorgarligini oshirishga yordam beradi, shuningdek, qo'lga kiritilgan natijalar oliy ta'lim muassasalarida «Rivojlanish psixologiyasi», «Shaxs psixologiyasi», «Psixologik xizmat asoslari», «Ijtimoiy psixologiya» fanlarini ilmiy manbalar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. «Kichik maktab yoshi o'quvchilarida ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari»ga doir tadqiqot natijalari asosida:

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlanishi ta'limiy axborotlarni qabul qilish, ularni qayta ishlash, arifmetik amallarni bajarishda ko'rgazmalilikning ustuvorligiga asoslanib obrazlarning egiluvchanligi, chuqurligini obyektни modellashtirishga qaratilgan harakatlarning intereorizatsiyasiga bog'liq ekanligi dalillangan xulosalardan Nizomiy nomidagi

O'zbekiston milliy pedagogika universitetida Psixologiya o'quv-ilmiy markazi a'zolarining 2025-yil 19-maydagi PM-342-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan. (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 12-maydagi PM-342a-sonli ma'lumotnomasi). Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlanishidagi differentsiativ xususiyatlar aniqlangan.

o'quvchilarda ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlanishi shaxsdagi fikrlarning ravonligi, kognitiv xususiyatlarni, matematik qobiliyatlar esa moslashuvchanlik, narsa va predmetlarni farqlash jarayonini kuchli ifodalanishiga ta'sir etganligi tufayli verbal tafakkurning senzitivlik asosida transformatsiyalashuviga bog'liq namoyon bo'ladigan ijodiy fikrlashga indentiv kechishi isbotlangan tavsiyalardan Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Psixologiya o'quv-ilmiy markazi a'zolarining 2025-yil 19-maydagi PM-342-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» modulini faoliyatga joriy etish jarayonida foydalanilgan. (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 12-maydagi PM-342a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada kichik maktab yoshi o'quvchilarida ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirishga ta'sir etuvchi psixologik omillar aniqlangan.

o'quvchilarda ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirishda mantiqiy fikrlash umumiy bilimdonlik va ziyraklik, so'z boyligini, kognitiv xususiyatlar analogiyalarni topishni, matematik qobiliyatni kuchayishiga olib kelganligi tufayli bolaning intellek darajasi predmetning obrazini sintezlash xususiyatiga bog'liq yetakchi psixologik omil ekanligi isbotlangan tavsiyalardan Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetida Psixologiya o'quv-ilmiy markazi a'zolarining 2025-yil 19-maydagi PM-342-son buyrug'i bilan "Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya" modulini faoliyatga joriy etish jarayonida foydalanilgan. (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 12-maydagi PM-342a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada kichik maktab yoshi o'quvchilarida ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirishda intellek darajasi xususiyatlarini tahlil qilingan.

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirishning psixologik modeli bolalarning ko'rgazmali-obrazli xotirasini yoshga oid rivojlanishini intellektual xislar bilan uyg'unlashishiga erishish muhimligi tufayli «kognitiv», «emotsional», «motivatsion», «ijtimoiy» komponentlarni fazoni obrazli modellashtirish qobiliyati orqali o'zaro integratsiyasi asosida takomillashtirilgan ilmiy natijalardan Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-maydagi PM-342-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 12-maydagi PM-342a-son ma'lumotnomasi). Natijada kichik maktab yoshi o'quvchilarida ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirishning psixologik shart-sharoitlariga doir nazariy-amaliy xulosalar ishlab chiqish va uning amaliy imkoniyatlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika konferensiyasida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasi doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan, 4 ta respublika, 2 ta xorijiy, 1 ta xalqaro jurnalda maqola, 6 ta xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda tezislar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 144 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoni o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, ishning fan va texnologiyalar rivojlanishining muhim yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning amaliyotda joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning «**Kichik maktab yoshi o'quvchilarida ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirish muammosining pedagogik-psixologik talqini**» deb nomlangan birinchi bobida tafakkurni rivojlantirish muammosining nazariy-ilmiy asoslariga tayangan holda kichik maktab yoshi o'quvchilarida ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik tamoyillari bilan bog'liq tahliliy sharhlar keltirilgan.

O'zbekistonda psixolog olimlarning ko'plab ilmiy tadqiqot ishlarida M.Davletshin, E.g'oziyev, Z.Abdiraxmonova, V.Karimova, Z.Nishonova, Z.Sirojiddinova, U.Turdiqulov, Sh.Samarova kabilar kichik maktab yoshidagi bolalar bilish jarayonlari, tafakkur sifatlari muammolarni ilmiy-amaliy jihatdan o'rgangan.

MDH olimlaridan boshlang'ich sinf o'quvchilari fikrlash jarayoni, tafakkurning rivojlanganlik darajalari bo'yicha K.Leongard, O.Tixomirov, S.Rubinshteyn, A.Leontev, P.Galperin, A.Brushlinskiy va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Xorijlik olimlar T.Shibutani, A.Adler, S.M.Sayles, J.Piaje, S.Duval, A.Freyd, Z.Freyd, Y.Xanin, F.Heider, E.Dyurkgeym, F.Parkinsonva boshqalar tomonidan tafakkurni yosh jihatdan rivojlanishi hamda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni individual-psixologik xususiyatlari muammosi bo'yicha nazariy tahlillar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Kichik maktab yoshi o'quvchilarida ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirish muammosining tadqiq etilishi**» deb nomlangan ikkinchi bobida o'rganilayotgan muammoning empirik tahlili keltirilgan bo'lib, ushbu bobda tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo'llanilgan

metodlarning umumiy tavsifi, o'tkazish tartibi, olingan natijalarning tahlili o'z aksini topgan. Shuningdek, mazkur bobda tadqiqotimiz maqsadiga mos tanlangan metodikalarning qo'llanilishi va undan kutilayotgan natijalar to'g'risida nazariy tahlillar berilgan. Yuqoridagi tahlillardan hamda tadqiqotimiz maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan psixologik so'rovnomamiz orqali olingan natijalar tahliliga o'tamiz. Dastlab, kichik maktab yoshi o'quvchilarining ko'rgazmali-obrazli tafakkurini o'rganish psixologik so'rovnomasi orqali olingan natijalar tahliliga o'tamiz.

1-jadval

«Kichik maktab yoshi o'quvchilarining ko'rgazmali-obrazli tafakkurini o'rganish psixologik so'rovnomasi» orqali olingan natijalar tahlili (n=170)

Shkalalar nomi	o'rtacha(M)		Farqlar	
	2-sinf N=90	4-sinf N=80	t	p
Mantiqiy tafakkur darajasi	7,2	9,9	-2,7*	0,05
Bilish jarayonlarining shakllanganlik darajasi	7,4	9,6	-2,2*	0,05
Matematik qobiliyat	8,6	8,9	-0,7	0,16

«Kichik maktab yoshi o'quvchilarining ko'rgazmali-obrazli tafakkurini o'rganish psixologik so'rovnomasi» orqali olingan natijalar tahliliga o'tadigan bo'lsak, «mantiqiy tafakkur darajasi» ($t=2,7$; $p \leq 0,05$) hamda «bilish jarayonlarining shakllanganlik darajasi» ($t=2,2$; $p \leq 0,05$) omillarida ahamiyatli farqlar kuzatildi.

Metodikamizning dastlabki «mantiqiy tafakkur darajasi» omili 4-sinf o'smirlarida yuqori natijani ko'rsatdi ($t=2,7$; $p \leq 0,05$). Bu shundan dalolat beradiki, 4-sinf o'quvchilarida 2-sinf o'quvchilariga qaraganda ko'rgazmali-obrazli tafakkurning mustaqilligi, o'quv materialining tez va puxta o'zlashtirilishi, aqliy jihatdan yetuklik, muammoning mohiyatiga chuqur kirib borish, ko'rgazmali-obrazli tafakkurning tanqidiyligi, berilgan savollarga tezkorlik bilan javob bera olish xususiyati, intellektual qobiliyatning shakllanganligi, shuningdek, ularda ko'rgazmali-obrazli tafakkur rivojlanishi analiz, sintez, taqqoslash omillariga bevosita bog'liq ekanligi kuzatildi. 4-sinf o'quvchilarida o'quv faoliyati va uning o'zlashtirish darajasiga mantiqiy tafakkur darajasi muhim rol o'ynar ekan. Shuningdek, 4-sinf o'quvchilaridagi mantiqiy tafakkur darajasining yuqori bo'lishi ularning ko'rgazmali-obrazli tafakkuriga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tafakkurning bu shakli o'quv materialini tasviriy va obrazli tarzda qabul qilish orqali rivojlanadi hamda ko'rgazmali-obrazli tafakkurning rivojlanishi o'quvchilarga abstrakt tushunchalarni vizual shaklda tushunish va ularni real voqelik bilan bog'lash imkonini beradi, bu esa ularning aqliy rivojlanishini yanada tezlashtirishga xizmat qiladi. Demak, 4-sinf o'quvchilarida ko'rgazmali-obrazli tafakkur bilan birga mantiqiy tafakkur ham rivojlanib, bu ikki tafakkur shakli o'zaro bir-birini boyitishga yordam beradi.

Tasviriy va obrazli yondashuvlar orqali o'quvchilarning mantiqiy tahlil qilish qobiliyatlari rivojlanib boradi. Shuningdek, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilim berish jarayonida ko'rgazmali vositalardan foydalanish, tasvirlar, rasmlar va diagrammalar orqali tushuntirish ularda nafaqat ma'lumotlarni vizual ravishda anglashga yordam beradi, balki muammolarni hal qilishda ham mustahkam poydevor yaratadi.

«Bilish jarayonlarining shakllanganlik darajasi» 4-sinf o'quvchilarida yuqori natijani ko'rsatdi ($t=2,0$; $p\leq 0,05$). «Bilish jarayonlarining shakllanganlik darajasi» omili psixik jarayonlarning barcha spektrini, ya'ni sezgilardan idrok etish, e'tibor, o'rganish, xotira, tushunchalarni shakllantirish, fikrlash, tasavvur, hissiyotlar rivojlanishigacha bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi. Jumladan, 4-sinf o'quvchilarida yoshi ulg'aygani sayin atrof-muhit, narsa va hodisalarga bo'lgan munosabati, bilishga ehtiyoji ham ortib borishi, berilgan topshiriqlarga doimo mantiqan va izchil yondashish hamda fikrlash jarayonining yaxshi shakllanganligi aniqlandi. Demak, bilish jarayonlarining shakllanganlik darajasi o'quvchilarda qanchalik yuqori bo'lsa, ularda fanlarni o'zlashtirish darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi, ilmiy dunyoqarash, ijodiy fikrlash qobiliyati shakllanib boradi. Shuningdek, ko'rgazmali-obrazli tafakkur, o'quvchilarning sezgi va idrok jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, bilish jarayonlarining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, bu yoshda tasvirlar, rasmlar, grafikalar va boshqa ko'rgazmali materiallar orqali ta'lim berish o'quvchilarning materialni yaxshiroq tushunishiga yordam beradi. Jumladan, 4-sinf o'quvchilarida bilish jarayonlarining rivojlanganligi ular uchun ko'rgazmali-obrazli tafakkur vositasida yangi bilimlarni o'zlashtirishni yengillashtiradi, bu esa o'z navbatida ularning mantiqiy va ijodiy tafakkur ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ma'lum bo'lishicha, bilish jarayonlarining shakllanganligi o'quvchilarga ko'rgazmali obrazlarni nafaqat tushunishga, balki ularni tahlil qilishga va ulardan ilmiy va ijodiy fikrlash uchun foydalanishga hamda e'tibor, xotira va tasavvur kabi kognitiv qobiliyatlarini ham rivojlantirishda qo'l keladi. Bu esa fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga va ijodiy yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun, bilish jarayonlarining rivojlanganligi, ko'rgazmali-obrazli tafakkur bilan birgalikda o'quvchilarning ta'lim olish jarayonidagi muvaffaqiyatlarini oshiradi, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi va yanada chuqur tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu o'z navbatida, o'quvchilarning ijodiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirib, ularga murakkab vazifalarni samarali hal qilishda yordam beradi.

«Matematik qobiliyat» omilida esa ahamiyatli darajadagi farqlar kuzatilmadi ($t=1,0$; $p\leq 0,16$). Natijalar har ikkala guruhda ham o'rtachadan yuqori darajani ko'rsatdi. Ma'lum bo'lishicha, 2-sinf hamda 4-sinf o'quvchilarida ham matematik materiallarni umumlashtirish, mulohaza yuritish jarayoni, matematik ish amallarini mustaqil bajara olish, masalani idrok qilish bilan natijasi o'rtasida aloqa o'rnatish, to'g'ri va teskari fikr yuritishdagi yengillik, unumlilik, masala yechishda fikr yuritishning mavjudligi asoslandi. Shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlari, ya'ni qiziqishlari, o'qishga bo'lgan munosabati va motivatsiya darajasi ham matematik qobiliyatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Matematik qobiliyatlar, xususan, matematik tushunchalarni umumlashtirish,

masalani yechishda to'g'ri va teskari fikrlash, va matematik operatsiyalarni samarali bajarish jarayonlari ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirishga asosiy ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, o'quvchilarning matematik qobiliyatlari rivojlanar ekan, ular tasviriy va ko'rgazmali materiallar bilan ishlash jarayonida aniqroq va chuqurroq fikrlash darajasi yuqori bo'lar ekan. Demak, ko'rgazmali-obrazli tafakkur, matematika singari fanlarni o'zlashtirishda, ayniqsa, murakkab matematik tushunchalarni ko'rgazmali vositalar orqali anglashda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, matematik qobiliyatlar va ko'rgazmali-obrazli tafakkurning rivojlanishi o'quvchilarda ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa ularning matematik tafakkurini yanada boyitadi va umumiy intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu yondashuv ularning matematika faniga qiziqishlarini oshirib, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratadi, natijada matematik qobiliyatlarining barqaror rivoji ta'minlanadi. Endi, Vilyamsning «Ijodiy fikrlash» testi bo'yicha olingan dastlabki natijalar tahliliga o'tamiz.

2-jadval

Vilyamsning «Ijodiy fikrlash» testi bo'yicha olingan dastlabki natijalar tahlili (n=170)

Shkalalar nomi	o'rtacha (M)		Farqlar	
	2-sinf N=90	4-sinf N=80	t	p
Fikrlashning ravonligi	8,3	11,3	-3,4*	0,05
Moslashuvchanlik	7,1	10,4	-3,2*	0,05
Tafakkurning o'ziga xosligi	10,4	10,7	-1,4	0,12
Tafakkurning rivojlanish darajasi	8,5	11,1	-3,1*	0,05
Narsa va predmetlarninomlash darajasi	7,8	9,7	-2,4*	0,05

Vilyamsning «Ijodiy fikrlash» testi bo'yicha olingan dastlabki natijalar tahliliga ko'ra, «fikrlashning ravonligi» ($t=-3,4$; $p\leq 0,05$), «moslashuvchanlik» ($t=-3,2$; $p\leq 0,05$), «tafakkurning rivojlanish darajasi» ($t=-3,1$; $p\leq 0,05$) hamda «narsa va predmetlarni nomlash darajasi» ($t=-2,4$; $p\leq 0,05$) omillarida ahamiyatli tafovutlar aniqlandi.

Metodikaning dastlabki «fikrlashning ravonligi» omili bo'yicha olingan dastlabki natijalar tahliliga binoan, 2-sinf o'quvchilariga qaraganda 4-sinf o'quvchilarida yuqori natija qayd etildi ($t=-3,4$; $p\leq 0,05$). Jumladan, 4-sinf o'quvchilarida ko'plab g'oyalarni yaratish, fikrlarning rang-barangligi, muammolarni hal qilishning yangi strategiyalarini tez va oson topish kabi sifatlarini ustuvorlik qilishi, ijodkorlikning yuqoriligi, mantiqiy fikrlash, qaror qabul qilishda tezlik va mahsuldorlikning mavjudligi aniqlandi. Mazkur jarayonlar esa ularni maktab hayotiga bo'lgan munosabati, mustaqil fikrlash handa tafakkur darajasini oshirishga xizmat qilishi mumkin ekan. Shuningdek, 4-sinf

o'quvchilaridagi fikrlashning ravonligi yuqori darajada rivojlanishi ularning ilmiy va intellektual qobiliyatlarini kengaytirishda muhim omil bo'lishi dalillandi. Ayniqsa, 4-sinf o'quvchilarida muammolarni ko'p qirrali yondashuvlar bilan hal qilish imkoniyatiga ega bo'lganligi sababli, ularning kelajakda analitik va ijodiy qobiliyatlari barqaror ravishda rivojlanadi. Demak, 4-sinf o'quvchilarining fikrlash ravonligi jarayonida muammoni ko'rish va tushunish qobiliyatlari bilan birga, yangi bilimlarni tez o'zlashtirish va ularni amaliyotga tatbiq qilish imkoniyati ham ortadi. Bundan tashqari, ijodkorlik va fikrlarning ko'p qirrali bo'lishi nafaqat ta'lim jarayonida, balki kundalik hayotda ham o'quvchilarning mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Navbatdagi «moslashuvchanlik» omili bo'yicha 4-sinf o'quvchilarida yuqori natija qayd etildi ($t=-3,2$; $p\leq 0,05$). Ma'lum bo'lishicha, ularda turli g'oyalarni ilgari surish, o'z pozitsiyasini o'zgartirish va narsalarga yangi nuqtai nazar orqali qarash, tashqi va ichki totuvlikka intilish, doimo kerakli muvozanat tuyg'usiga yaqinlashish, salbiy his-tuyg'ulardan qochishga harakat qilish, o'quv faoliyatidagi qiyinchiliklarga nisbatan optimistik qarash hamda istalgan natijaga erishish uchun maksimal harakat qilish kabi xususiyatlar dalillandi. Demak, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda moslashuvchanlik qanchalik yuqori bo'lsa, o'zgargan sharoitlarga moslashish, o'quv faoliyatida turli xil uchraydigan muammolarga ijodiy yondoshish hamda tafakkur darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Metodikaning keyingi «tafakkurning rivojlanish darajasi» omili bo'yicha, 4-sinf o'quvchilarida yuqori natij qayd etildi ($t=-3,1$; $p\leq 0,05$). Jumladan, 4-sinf o'quvchilarida tasavvurning yuqoriligi, yangi aqliy harakat usullarini juda tez o'zlashtirib olishi, aqliy faoliyatda yangi usullarning shakllanib borishi, tashqi muhitdan qabul qilinayotgan axborotlarni tezda o'zlashtirib olishi, divergent fikrlash, shaxsiy fantaziyaning oshganligi hamda yangi obrazlarni, xayoliy hodisalarni analiz qilish yuqori ekanligi dalillandi. Bu esa shundan dalolat beradiki, tafakkurning rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilarda yangi bilimlarni o'zlashtirishda, mantiqiy masalalarni yechishda, boshqalarning yonida ham cho'chimasdan fikrini mustaqil bayon eta olishda, shuningdek, muammoli vazifalarning yechimini topishda qo'l keladi.

Metodikaning so'nggi «narsa va predmetlarni nomlash darajasi» omili bo'yicha sezilarli tafovutlar aniqlangan bo'lib, 4-sinf o'quvchilari 2-sinf o'quvchilariga qaraganda yuqori natijani qayd etdi ($t=-2,4$; $p\leq 0,05$). Buni 4-sinf o'quvchilarining narsa va predmetlar haqidagi tassavurlari ortganligi, ulardagi nutq komponentlarining rivojlanganligi, so'z boyligining ortishi va so'zlar bilan chizilgan rasmning yashirin ma'nosini ifoda qilish qobiliyati bilan belgilash mumkin ekan. Shuningdek, 4-sinf o'quvchilarining narsa va predmetlarni nomlash qobiliyatining yuqori bo'lishi ularning kognitiv rivojlanish darajasi bilan bog'liqdir. Jumladan, ularning nutq komponentlarining rivojlanganligi, so'z boyligi va semantik to'plamlar bilan ishlash qobiliyati ortishi bilan birga, ular fikrlash jarayonida murakkab tushunchalar va aloqalarni oson anglashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ularda so'z boyligining ortishi va uni kontekstda to'g'ri ishlatish qobiliyati o'quvchilarning nafaqat nutqiy, balki yozma nutq ko'nikmalarini ham mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, turli

predmetlarni nomlash va ularning ma'nolarini aniqlash qobiliyati o'quvchilarda tafakkur jarayonining yanada rivojlanganligini, shuningdek, ularning lug'at boyligi va umumiy bilish qobiliyatining o'sganligini tasdiqlaydi. Shuningdek, Vilyams metodikasi bo'yicha, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning yoshi ortishi bilan ularning chizgan rasmlarini assimetriyasi va murakkabligi ham ortib borar ekan, bu esa albatta kreativlik darajasi bilan bog'liq. Shuningdek, bugungi jadallik bilan rivojlanib borayotgan jamiyat hayoti uchun ijobiy holda moslashuvchan va ijtimoiy muhitda belgilangan me'yorlardan kelib chiqib o'z-o'zini erkin namoyon etuvchi o'quvchilar faoliyati, ularning ijtimoiy ong, ijtimoiy bilim hamda ijtimoiylashuvga oid ko'nikmalari zaruriy ahamiyatga egadir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodkorlik sifatleri ularni nafaqat ta'lim-tarbiya olish jarayonlarida, balki, ularning o'quv faoliyatiga moslashishida hamda tafakkurning shakllanishida ham alohida ahamiyat kasb etishi asoslandi.

3-jadval

Vekslarning «Bolalar intellektini aniqlash metodikasi» bo'yicha olingan dastlabki natijalar tahlili (n=170)

Shkalalar nomi	o'rtacha(M)		Farqlar	
	2-sinf N=90	4-sinf N=80	t	p
Umumiy bilimdonlik	7,2	10,1	-3,1*	0,05
Ziyraklik (fahmlilik)	6,5	9,4	-2,9*	0,05
O'xshashlikni topish va analogiya	8,4	9,7	-1,1	0,17
So'z boyligi	7,3	9,2	-2,3*	0,05
Sonlar qatorini takrorlash	6,4	8,9	-2,2*	0,05

Vekslarning «Bolalar intellektini aniqlash metodikasi» bo'yicha olingan dastlabki natijalar tahliliga ko'ra, «umumiy bilimdonlik» ($t=-3,1$; $p\leq 0,05$), «ziyraklik (fahmlilik)» ($t=-2,9$; $p\leq 0,05$), «so'z boyligi» ($t=-2,3$; $p\leq 0,05$) hamda «sonlar qatorini takrorlash» ($t=-2,2$; $p\leq 0,05$) omillarida ahamiyatli tafovutlar kuzatildi.

Metodikaning dastlabki «umumiy bilimdonlik» omili bo'yicha 4-sinf o'quvchilarida yuqori natija kuzatildi ($t=-3,1$; $p\leq 0,05$). Bu shundan dalolat beradiki, 4-sinf o'quvchilarida psixik faoliyatni ongli ravishda boshqarishga doir intilishlar, bilish jarayonlarining yuqori shakllari, ya'ni ixtiyoriy diqqat, ixtiyoriy xotira kabi ongli boshqaruv jarayonlarining yaxshi shakllanganligi, fanlarni o'zlashtirishda qiyinchilikka duch kelmaslik, fikrlash doirasining kengligi, aqliy tafakkurni rivojlantiradigan mashg'ulotlarni doimiy bajarish, shuningdek, aqliy imkoniyatlardan unumli foydalanishi dalillandi. Buni esa ularning doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, fikrlashni o'stiradigan asarlarni o'qishi hamda aqliy tafakkurni kengaytiradigan mantiqiy masalalarni ko'proq ishlashi bilan izohlaymiz.

Metodikaning keyingi «ziyraklik (fahmlilik)» omili bo'yicha ham 4-sinf o'quvchilari 2-sinf o'quvchilariga qaraganda yuqori natijani qayd etdi ($t=-2,9$; $p\leq 0,05$). Demak, 4-sinf o'quvchilarida muammoni hal qilish, tanqidiy fikrlash, murakkab g'oyalarni tushunish, hissiy bilim, ijodkorlik, anagrammalar yechish,

krossvordlar tuzish kabi vazifalarni bajarishda soʻzlarni tez va ravon ishlata olish, tushunchalar va gʻoyalarning maʼnosini tushunish, pertseptiv tafsilotlarni tez va toʻgʻri anglash, maʼlumotlarni eslab qolish, yangi va qiziqarli gʻoyalarni yaratish uchun berilgan vazifalardan tashqari qoʻshimcha ravishda oʻz ustida ishlash kabi xususiyatlar aniqlandi. Bu esa 4-sinf oʻquvchilarida tasavvurlarni kengaytirishda, kreativlikni oshirishga xizmat qiladi. Keyingi «soʻz boyligi» omili boʻyicha 4-sinf oʻquvchilari ijobiy natijani qayd etdi ($t=-2,3$; $p\leq 0,05$). Buni esa, 4-sinf oʻquvchilari 2-sinf oʻquvchilariga qaraganda oʻquv faoliyatiga oid terminlarni koʻproq bilishi, ularga nisbatan yosh tafovutining mavjudligi, oʻzini oʻzi anglash yuqori darajada ekanligi hamda qoʻshimcha chet tili toʻgaraklariga qatnashishlari bilan izohlaymiz. Demak, 2-sinf oʻquvchilarda soʻz boyligini oshirish uchun berilgan topshiriqlardan tashqari koʻproq qoʻshimcha faoliyat bilan shugʻullanish, sheʼriy hamda nasriy asarlarni oʻqish hamda aqliy hujum mashgʻulotlarini bajarishlari maqsadga muvofiq.

Metodikaning soʻnggi «sonlar qatorini takrorlash» omili boʻyicha ham 4-sinf oʻquvchilari yuqori natijani qayd etdi ($t=-2,2$; $p\leq 0,05$). Jumladan, 4-sinf oʻquvchilarida baland ovozda oʻqilgan sonlar qatorini aynan oʻzidek qilib takrorlash va sonlar qatorini oxirgisidan boshiga qarab, yaʼni teskari yoʻnalishda takrorlashda qiyinchilikka uchramasliklari aniqlandi. Bu jihatlar esa kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarning tafakkur doirasining kengayishida, analiz, sintez jarayonlarining rivojlanishida muhim rol oʻynaydi.

Tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarning koʻrgazmali-obrazli tafakkurini rivojlanishiga taʼsir etuvchi omillarni tahlillari amalga oshirildi.

4-jadval

«Kichik maktab yoshi oʻquvchilarining koʻrgazmali – obrazli tafakkurini oʻrganish psixologik soʻrovnomasi» hamda Vilyamsning «Ijodiy fikrlash» testi oʻrtasidagi aloqadorlik ($n=170$)

Omillar	Mantiqiy tafakkur darajasi	Bilish jarayonlarining shakllanganlik darajasi	Matematik qobiliyat
Fikrlashning ravonligi	0,39*	0,14	0,18
Moslashuvchanlik	0,14	0,45*	0,05
Tafakkurning oʻziga xosligi	0,41*	0,16	0,11
Tafakkurning rivojlanish darajasi	0,49*	0,10	0,48*
Narsa va predmetlarni nomlash darajasi	0,13	0,47*	0,13

«Kichik maktab yoshi oʻquvchilarining koʻrgazmali-obrazli tafakkurini oʻrganish psixologik soʻrovnomasi» hamda Vilyamsning «Ijodiy fikrlash» testi oʻrtasidagi korrelyatsion bogʻlanishlar natijalariga koʻra, «mantiqiy tafakkur darajasi» omili «fikrlashning ravonligi» ($r=0,39$; $p\leq 0,05$), «tafakkurning oʻziga

xosligi» ($r=0,41$; $p\leq 0,05$) hamda «tafakkurning rivojlanish darajasi» ($r=0,49$; $p\leq 0,05$) omillari bilan, «bilish jarayonlarining shakllanganlik darajasi» omili «moslashuvchanlik» ($r=0,45$; $p\leq 0,05$) hamda «narsa va predmetlarni nomlash darajasi» ($r=0,47$; $p\leq 0,05$) omillari bilan, «matematik qobiliyat» omili «tafakkurning rivojlanish darajasi» ($r=0,48$; $p\leq 0,05$) omili bilan ijobiy bog'lanishlar qayd etdi.

Dissertatsion tadqiqotimizning dastlabki «mantiqiy tafakkur darajasi» omili «fikrlashning ravonligi» omili bilan ijobiy bog'lanishni qayd etdi ($r=0,39$; $p\leq 0,05$). Mazkur omillardagi bog'liqlikka ko'ra, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mantiqiy tafakkur darajasi, tashqi dunyoni anglash, orientovka jarayonining yuqori darajada shakllanganligi, tafakkur tezligi, aqliy faoliyatning ustunligi, ijtimoiy muhit hamda voqelikni chuqur analiz qilish xususiyatlarining mavjudligi ulardagi fikrlashning ravonligiga ijobiy ta'sir o'tkazishi dalillandi. Ya'ni, mantiqiy tafakkur darajasi yuqori bo'lgan kichik maktab yoshi o'quvchilarida mustaqil fikrlash, tasavvur qilinayotgan narsa va hodisalar haqida fikr yuritish va uning kengligi, ob'yektiv hisoblangan narsa va hodisalarni zamon, makon va mantiqiy jihatdan ma'lum tartibda joylashtirishda fikr yuritishning ustunligi hamda bilimlarni o'zlashtirishda ko'nikma va malakalarni tartibga solishda muhim o'rin tutadi.

Olingan natijalar tahlilidan ko'rinib turibdiki, «mantiqiy tafakkur darajasi» omili hamda «tafakkurning o'ziga xosligi» omillari o'rtasida ijobiy bog'lanishlar aniqlandi ($r=0,41$; $p\leq 0,05$). Mantiqiy tafakkur darajasi yuqori ko'rsatkichni qayd etgan kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda yuqori darajadagi ijodiylik, ma'lumotlarni analiz va sintez qilish, axborotlarni birlashtirish, kreativ fikrlash, o'quv faoliyatini samarali amalga oshirish yuqori darajada ekanligi dalillandi. Bundan tashqari, ularda qaror qabul qilish jarayonida tezkor va aniq fikrlash, mavjud vaziyatlardan samarali yechimlar topa olish qobiliyatlari rivojlanganligi asoslandi. Bu esa ular uchun murakkab muammolarni hal qilish va o'qish jarayonida muvaffaqiyatli bo'lish imkonini beradi. Shuningdek, mantiqiy tafakkur va tafakkurning o'ziga xosligi o'rtasidagi bog'liqlikni yanada chuqurlashtirib, bu o'quvchilarning o'z bilimlarini moslashuvchan tarzda qo'llashlari va turli kontekstlarda ijodiy fikrlash orqali yangi yechimlarni topish qobiliyatiga ega ekanliklarini ham ko'rsatadi.

Shuningdek, «mantiqiy tafakkur darajasi» omili hamda «tafakkurning rivojlanish darajasi» omillari orasida ham ijobiy bog'lanishlar aniqlandi ($r=0,49$; $p\leq 0,05$). Bu shundan dalolat beradiki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ko'plab maslalarining yechimlarni o'rganish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ijodiy g'oyalarni yaratish, muammoga aniq javob topishga qaratilgan fikrlashning shakllanishi, mavjud bilimlarni standart protseduralar yordamida manipulyatsiya qilish, ijodkorlikning namoyon bo'lishi, samaradorlikning oshirish hamda ijodiy muammolarni hal qilish mumkinligi asoslandi. Birinchidan, bu bog'lanish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning bilimlarni izchil va mantiqiy tartibda ishlatish orqali yangi bilimlarni yaratish qobiliyatlarini rivojlantirishini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, mantiqiy tafakkurning rivojlanishi ularda fikrlarning aniq va to'g'ri shakllanishini, muammolarga qarshi yangi yondashuvlarni izlash jarayonida izchil va samarali ishlash qobiliyatini oshiradi. Bu esa ularning mustaqil

fikrlashini, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini va ijodiy jarayonlarda o'z pozitsiyalarini mustahkamlay olish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotimizning keyingi «bilish jarayonlarining shakllanganlik darajasi» omili hamda «moslashuvchanlik» omili o'rtasida ijobiy korrelyatsiya aniqlandi ($r = 0,45$; $p \leq 0,05$). Jumladan, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilishning psixologik bosqichlari, darajalari, barqarorligi, tashqi muhitdagi narsa va hodisalarning ayrim xossalarini tahlil qilish, ma'lumotlarni qabul qilib qayta ishlash jarayonining yuqori darajadali, axborotlarni esda saqlab qolishning yaxshi shakllanganligi ularda turli g'oyalarni ilgari surish va turli sharoitlarga moslashish natijasida sezgirlikning oshishiga ta'sir ko'rsatishi asoslandi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ko'rgazmali-obrazli tafakkurning rivojlanishi ta'limiy axborotlarni qabul qilish, ularni qayta ishlash, arifmetik amallarni bajarishda ko'rgazmalilikning ustuvorligiga asoslanib, obrazlarning egiluvchanligi va chuqurligi obyektни modellashtirishga qaratilgan harakatlarning intererorizatsiyasiga bog'liq ekanligi aniqlandi.

Demak, bilish jarayonlarining shakllanganlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, o'quvchilarning obrazlarni qayta ishlash va obyektни modellashtirishdagi qobiliyatlari ham shunchalik samarali bo'lib, bu jarayon ko'rgazmali-obrazli tafakkurning rivojlanishida moslashuvchanlikning kuchayishi bilan chambarchas bog'liqligi kuzatildi.

